



www.yoshlarovozi.uz



yoshlarovozi@umail.uz



@Yoshlarovozi

№ 97 (16402)

2019-YIL 14-DEKABR

3



MUNOSABAT



ENERGIYANI TEJASH HAM MADANIYAT

2019-yil 22-avgust kuni
O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining "Iqtisodiyot
tarmoqlari va ijtimoiy sohaning
energiya samaradorligini
oshirish, energiya tejovchi
texnologiyalarni joriy etish
va qayta tiklanuvchi energiya
manbalarini rivojlantirishning
tezkor chora-tadbirlari
to'g'risida"gi qarori qabul
qilingan edi.



Mazkur qaror ilg'or xorijiy tajriba-ni inobatga olib, mavjud resurslarni va ishga solinmagan salohiyatni jaib etish orqali energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi.

Qarorda respublikada iqtisodiyot barqaror o'sishini ta'minlashga va aholining farovonlik darajasini oshirishga, yoqilg'i-energetika resurslariga bo'lgan talab-ehtiyojni uzluk-siz qanoatlanishiga qaratilgan neft-gaz, elektr energetika, ko'mir, kimyo, qurilish industrijasini rivojlanishning uzoq muddatli strategiyasi amalga oshirilayotgani ta'kidlangan. Shuningdek, yoqilg'i-energetika tarmog'ining mavjud quvvatlari energiya resurslariga ortib borayotgan talab-ehtiyojni to'liq darajada ta'minlamayotgani, mamlakatimiz iqtisodiyotining energiya sarfi hajmi rivojlangan mamlakatning o'rtacha ko'rsatkichidan ancha yuqorigi ko'satilgan. Hozirgi vaqtida bizlар nooqilona va tejamasdan foydalanayotgan elektr energiyasi, tabiiy (is gazi) gaz, issiqlik energiyasi, ichimlik suvi an'anaviy energetika hisoblanadi. Biroq bir kun kelib bularning tabiiy potensial resursi tugashi muqarrardir.

Misol uchun, elektr energiyasini olaylik. Bu shunday kerakli va kundalik turmushimizda eng zarur energiya turidir. Usiz televizor ko'rish, radio eshitish, kompyuterda ishlash va internet orqali axborot olish imkoniyatidan mahrum bo'lib qolamiz. Kitob o'qish, yozish, chizish, umuman, dars tayyorlash uchun ham yorug'lik energiyasi kerak. Sovutkich yoki muzlatkich ham, kir yuvish, kiyimlaridan dazmollash uskulunari ham toksiz ishlamaydi.

Afsuski, elektr, gaz yoki suv hayotimiz uchun naqadar zarur resurslar bo'lsa-da, ulardan tejab foydalanishga qunt qilmaymiz. Oshxona, vanna yoki hojatxonadan chiqayotib, chiroqni o'chirishni unutamiz, suv behuda oqib yotsa ham parvo qilmaymiz.

Bugungi kunda har bir energiya resursi sarfini o'lchaydigan "Aqli hisoblagichlar" turmushimizga joriy qilinayotganini bilsak-da, uyalı telefon quvvatlantirgichidan foydalangandan so'ng uni rozetkadan sug'urib qo'yish xayolimizga kelmaydi. Uy-joylarda issiqlik batareyalari haddan tashqari qizib ketsa, gaz bosimini pasaytirish o'rniqa deraza oynalarini ohib qo'yamiz.

Yugorida qayd etilgan qarorda, bunday holatlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan normalar qabul qilindi. Bular jumlasiga:

— xususiy xonadonlarda quyosh fotoelektrik stansiyalari (o'rtaча 2 kW) va quyosh suv isitkichlarini (o'rtaча 200 litr) o'rnatish;

— maishiy iste'molchilarining, shuningdek, yuridik shaxslarning no standart gaz-gorelkali qurilmalarini zamonaliv va energiya samarador gaz-gorelkali qurilmalarga almashtirish kabi tadbirlar kiradi.

Shuningdek, qaror asosida joriy yilning oktabr, noyabr va dekabr oylarida energiya samaradorligini oshirish vazifalarini hal etish uchun ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasa-larinining sa'y-harakatlarini birlashtirish yuzasidan Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Xalq ta'limi hamda Maktabgacha ta'lim vazirliklari hamkorligida "Energiya tejamkorligi" sohasida uzlusiz, ko'p bosqichli ta'lim tizimi ni rivojlantirish" dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash vazifalari belgilangan.

Yuqoridaqilardan kelib chiqib, elektr energiyasi, umuman, energiya resurslaridan unumli, isrof qilmasdan, tejamkorlik bilan oqilona foydalanish barchamizning asosiy vazifamizga, milliy burchimizga aylanishi kerak.

Energiya resurslaridan foydalanishda loqaydlikka yo'l qo'ymay, ulardan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantira olsak, u hammaga va uzoq muddatga yetadi.

Dilshod YUSUPALIYEV,
Energetika vazirligi huzuridagi
iqtisodiyot tarmoqlari va
ijtimoiy sohada energiya
samaradorlik va energiya
tejamkorlik bo'yicha
departament bosh mutaxassisini

YUKSALISH

Yurtimizda ixtisoslashgan kadrlarni tayyorlash borasidagi islohotlar harbiy jurnalistika sohasini ham chetlab o'tmadni. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan davriy bosma va elektron ommaviy axborot vositalari xodimlarining harbiy jurnalistika bo'yicha kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida tashkil etilgan bir oylik o'quv kursi sohaga qaratilgan e'tiborning yaqqol namunasidir.



Harbiy jurnalistika o'quv kursi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida o'tilayotgan harbiy kurslar jurnalistlarning bilim-ko'nikmasini oshirmoqda.

O'quv dasturi uch yo'nalish (harbiy jurnalistika nazariyalari, jurnalistik ijod mahorati, yangi media ko'rinishlari)ga taqsimlangan. Jurnalistlar birinchi bosqich bo'yicha "Zamonaviy harbiy jurnalistika asoslari", "Jangovar harakatlar nazariysi", "Harbiy jurnalistika qonunlari", "Harbiy jurnalistikada psixologiya" kabi fanlarni o'zlashtirib, sohaga oid nazariyaga ega bo'ldi. Mashg'ulotlarni jurnalistika sohasida ko'p yillik tajribaga ega professor-o'qituvchilar, harbiy sohaning yetakchi ofitserlari olib bormoqda. Ayniqsa, darslar sohaga oid ko'rgazmali jihoz va asbob-uskunalar asosida o'tilishi jurnalistlarda qiziqishni yanada ortirdi.

Shuningdek, dars jarayonlarida jurnalistikaning mazkur yo'nalishi xavf-xatarga boyligi bilan ajralib turishi haqida so'z bordi. Harbiy jurnalistdan doimo sergaklik, favqulodda vaziyatlarda hushyorlik va tezkorlik talab etilishi tushuntirildi.

Sherzodxon QUDRATXO'JAYEV,
siyosiy fanlar nomzodi, dotsent:

— Harbiy jurnalistika yo'nalishi bo'yicha universitetimizda tashkil etilgan bir oylik kurslar ommaviy axborot vositalarida faoliyat yuritayotgan, ammo harbiy sohaga ixtisoslashgan yoki ixtisoslashishni xohlagan jurnalistlarning qayta tayyorlov kursi hisoblanadi. Bunga qadar biz to'rt oylik harbiy sohada faoliyat yuritayotgan, biroq jurnalistikada o'qimagan, jurnalistikadan bexabar va ma'lumotga ega bo'lmagan harbiyalar uchun shunday o'quv kursini tashkil etgan edik. Ahamiyatli, bu sohaga ixtisoslashgan jurnalistlar mavzuni yoritish uchun sohaga oid terminlarni, atamalarni, sohada faoliyat olib borayotgan mutaxassislar bilan suhabat qurayotganda ularning tilida qanday gaplashishni bilishi muhim. Harbiy tartib-qoidalarni bilish, tushunish juda muhim sanaladi.



Nilufar IBRAGIMXO'JAYEVA,
O'zbekiston jurnalistika va
ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti qayta tayyorlov va
malaka oshirish bo'limi rahbari:

— Harbiy jurnalistika, harbiy korrespondentlar faqat avtomat ovozi kelib turadigan joylardan reportajlar tayyorlaydi, degan fikr xato. Chunki favqulodda vaziyatlarda aynan shu kursni tugatgan jurnalistlar boshqalardan ko'ra faolroq bo'ladi. Harbiy jurnalistika kursida tinglovchilarni, eng avvalo, favqulodda holatlarga, ziddiyatlari vaziyatlarga tayyorlayapmiz. Kursning nazariy darslarini tugatgan tinglovchilarni amaliy mashg'ulot o'tash uchun qator vazirlik va davlat organlariga yuboramiz.

NEMISCHA USLUB

Jizzax shahrida Yosh fermerlar innovatsion markazi ochildi

Loyiha O'zbekiston yoshlar ittifoqi hamda Germaniyaning Jamg'arma kassalari fondi hamkorligida amalga oshirilgan. Yangi markaz yurtimiz ishbilarmon yoshlarining qishloq xo'jaligi sohasi va qishloq hududlarini rivojlantirishga doir tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi, viloyatdagi yosh fermerlar faoliyatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda fermerlikka qiziquvchi yigit-qizlarni qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanadi. Yosh fermerlar innovation markazining ochilish marosimida Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi o'r-

bosari, xalqaro hamkorlik va loyihamar kompleksi rahbari Farrux Omonov, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari Jizzax viloyati kengashi raisi, O'zbekiston Qahramoni Anorboy Eshmatov, Ittifoqning hududiy kengashi raisi Dilmurod Xudozhukurov hamda 500 nafarga yaqin yosh fermer qatnashdi.

Tadbir doirasida germaniyalik ekspert Matias Vangler yig'ilganlarni ikki asrlik tarixga ega bo'lgan Jamg'arma kassalari fondining asosiy vazifalari bilan tanishtdi.

— O'zbekistonda ish boshlaga-

nimizdan xursandman, — ta'kidlidan janob Vangler. — Hamkorlik uchun O'zbekiston yoshlar ittifoqiga alohida minnatdorlik bildiraman. Jizzax viloyatidagi Yosh fermerlar innovatsion markaz faoliyatini birgalikda olib boramiz. Birinchi kuniyoq yoshlarni qiziqitirish maqsadida fermerlik faoliyatini rivojlantirish, pul mablag'larini jamg'arish va ulardan maqsadli foydalanish yuzasidan interfaol o'yinlar hamda amaliy mashg'ulotlar o'tdik. Viloyatda ming nafardan ortiq yigit-qiz fermerlik bilan shug'ullanmoqda. Loyihamiz natijasida ularning salmoq'i yanada oshsa, ajab emas.

Tadbir yakunida mehmonlarga Yoshlar ittifoqi viloyat kengashining esdalik sovg'alari topshirildi.

Eldor NAVRO'ZOV

Azim AXTAMOV